



MAGISTRLIK DISSERTATSIYASINI
RASMIYLASHTIRISH VA HIMOYASINI
AMALGA OSHIRISH BO'YICHA

USLUBIY QO'LLANMA



www.nordicuniversity.org
facebook.com/nordicedu



+998 55 508 4400
+998 95 505 3300



info@nordicmail.uz
info@nordicuniversity.org



XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

**MAGISTRLIK DISSERTATSIYASINI
RASMIYLASHTIRISH VA HIMOYASINI
AMALGA OSHIRISH BO'YICHA
USLUBIY QO'LLANMA**

TOSHKENT-2024

Magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlash va himoyasini amalga oshirish bo'yicha uslubiy qo'llanma. T.: XNU. 2023. – 42 b.

Mazkur uslubiy qo'llanmada magistrlik dissertatsiyalarini himoya jarayoniga tayyorlash tartibi, uning bajarilish va taqdim etish muddati, shuningdek, unga tegishli materiallarni to'g'ri bayon etish va rasmiylashtirishning asosiy qoidalari keltirilgan.

Uslubiy qo'llanmada magistrlik dissertatsiyalarini bajarish jarayonida ilmiy tadqiqotlarni o'rganish metodikasi, tajribalar o'tkazish, olingan natijalarga tahliliy ishlov berish tartibi yoritilgan. Uslubiy qo'llanmadan magistratura bosqichida tahsil olayotgan talabalar, shuningdek doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, metodist-o'qituvchilar va malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari tinglovchilari ham o'z faoliyatlarida foydalanishlari mumkin.

Tuzuvchilar:

- | | | |
|-----------------|---|---|
| Sh.Mustafakulov | – | Xalqaro Nordik universiti rektori, i.f.d., professor |
| Z.A.Xamidova | – | Xalqaro Nordik universiteti Magistratura fakulteti dekani, PhD, dotsent |

Taqrizchilar:

- | | | |
|----------------|---|---|
| O.Qo'ysinov | – | Xalqaro Nordik universiti prorektori, p.f.d., professor |
| N.Lutfullayeva | – | Xalqaro Nordik universiteti Maktabgacha ta'lim va psixologiya kafedrasini mudiri, p.f.n., dotsent; |
| B.Salimov | | Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrasini professori, i.f.d. |

MUQADDIMA

“Ta’lim to’g’risida” va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi qonunlariga, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 24-iyuldagi “Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o’tkazish tizimini yanada takomillashtirish to’g’risida”gi PF-4456-son Farmoniga, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 10-sentabrdagi “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimida magistratura faoliyatini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 190-son qaroriga muvofiq hamda oliy ta’lim muassasalarida magistrlar tayyorlash samaradorligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilingan.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 2-martdagi 36-sonli **“Magistratura to’g’risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi** qarori bilan tasdiqlangan rasmiy hujjatga muvofiq ushbu **“Magistrlik dissertatsiyasini rasmiylashtirish va himoyasini amalga oshirish bo’yicha uslubiy qo’llanma”** ishlab chiqildi. Magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash namunaviy tartibi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 2 martdagi 36-son qarori bilan tasdiqlangan **“Magistratura to’g’risida”gi** Nizomga asoslangan holda ishlab chiqilgan bo’lib, uning bandlarini to’ldiruvchi va izohlovchi hujjat hisoblanadi.

“Ta’lim to’g’risida”gi qonunga muvofiq, magistratura aniq mutaxassislik bo’yicha bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta’limdir. Undagi ta’lim olish jarayoni yakuniy kvalifikatsion davlat attestatsiyasi va magistrlik dissertatsiyasini himoya qilish bilan nihoyasiga yetkaziladi. Magistrarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi muayyan mutaxassislik yo’nalishida ilmiy, ilmiy-pedagog faoliyati bilan shug’ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

Magistratura ta’limi davlat ta’lim standarti bo’yicha belgilangan maxsus ta’lim dasturi asosidagi mutaxassislik bo’yicha fundamental ta’lim va yo’nalishi bo’yicha mukammallashtirilgan bilimlar asosida mustaqil ilmiy faoliyatga, ilmiy-tadqiqot, ilmiy-amaliy va ilmiy-pedagogik ishlarda malakaga ega bo’lishga, magistrlik unga yondosh yoki fan nomzodi ilmiy darajasiga ega bo’lish uchun ilmiy tadqiqot ishini olib borishga, mutaxassislik bo’yicha doktoranturada o’qishga tayyorlaydi.

Magistrlik dissertatsiya mavzulari ta’lim muassasasining tayanch kafedralari tomonidan mutaxassislarga talabgorlarning talablarini, shuningdek, zamonaviy fan, texnika, texnologiya yutuqlarini hisobga olgan holda belgilanadi. Magistrlik dissertatsiya ishi himoyasini o’tkazish bo’yicha universitet tomonidan tasdiqlangan raislar rahbarligida rektor buyrug’i bilan Attestatsiya komissiyalari tashkil etiladi.

Magistrlik dissertatsiya ishi himoyasini o'tkazish bo'yicha universitet tomonidan tasdiqlangan raislar rahbarligida rektor buyrug'i bilan Attestatsiya komissiyalari tashkil etiladi.

Attestatsiya komissiyalari, mutaxassis tayyorlovchi tayanch oliy ta'lim muassasasining ilmiy-pedagogik kadrlari tarkibidan (attestatsiya komissiyasi umumiy tarkibining 50 foizigacha), shuningdek, mazkur soha kadrlarini iste'molchilari bo'lgan korxona, tashkilot va muassasalarning yuqori malakali mutaxassislari, turdosh oliy ta'lim muassasalarning yetakchi professor-o'qituvchi va ilmiy xodimlari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tizimidagi muvofiq sohalar olimlaridan shakllantiriladi.

Magistrlik dissertatsiya himoyasini o'tkazish bo'yicha Attestatsiya komissiyasining tarkibi universitet rektori tomonidan himoya boshlanishidan bir oy oldin tasdiqlanadi. Dissertatsiyalar himoyasi (yopiq mavzulardagi ishlardan tashqari) Attestatsiya komissiyalarining ochiq majlislarida, a'zolarning uchdan ikki qismi ishtirok etgan holda o'tkaziladi.

Magistrlik dissertatsiyalarining himoyasi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi hamda attestatsiya komissiyasining majlis bayoni belgilangan tartibda rasmiylashtirilgandan so'ng shu kunning o'zida e'lon qilinadi.

Attestatsiya komissiyasi yakuniy attestatsiyasi natijalari asosida ularga mutaxassisliklari bo'yicha magistr darajasidan o'rnatilgan nusxada diplom berish haqida qaror qabul qiladi.



Ushbu uslubiy qo'llanma

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Xalqaro Nordik universiteti hamda Finlandiyaning Kareliya amaliy fanlar universitetlarida yillar mobaynida to'plangan boy tajribalar asosida tuzilgan,

UMUMIY QOIDALAR

Dissertatsiyani rasmiylashtirishda quyidagi umumiy talablarga rioya qilinishi lozim:

- Matn tahririy jihatdan ravon, xatosiz va uni rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablarga muvofiq hamda mantiqiy bog'liqlikda bo'lishi;

- dissertatsiyaning tarkibiy qismlari bir-biri bilan o'zaro bog'liqlik va aloqadorlikda hamda tushunarli ravishda mantiqiy izchillikda yoritilishi;

- har bir bobda ishning mazmun-mohiyati tadqiqotning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda tizimli ravishda ochib berilishi;

- bayon qilingan xulosa dissertatsiya tadqiqotining mantiqiy hosilasi sifatida ishonchli manbalar asosida aniq va qisqa ifodalanishi, chuqur fikr-mulohazalar, yetarli ilmiy dalillar asosida isbotlangan bo'lishi.

Dissertatsiyada tadqiqotning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda ishning ilmiy yangiligi, amaliy va ilmiy natijalarining amaliyotga joriy etilganligi hamda ishning mohiyati ochib berilganligi, shuningdek xulosalari bayon etilishi lozim.

Dissertatsiyaning mundarijasida boblar va paragraflarning nomlanishi hamda ularning beti ko'rsatiladi.

Dissertatsiyaning titul varag'i namunaga muvofiq shaklda rasmiylashtiriladi (1-ilova).



Dissertatsiya quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi lozim:

- **titul varaq;**
- **titul varaqning orqa tomonida tegishli shaxslar imzosi uchun shakl hamda tinglovchi deklaratsiyasi (2-ilova);**
- **mundarija;**
- **talaba o'qigan til va ingliz tilidagi dissertatsiyaning qisqacha annotatsiyasi;**
- **talaba o'qigan til va ingliz tilidagi kalit so'zlar;**
- **keltirilgan qisqartmalar (agar mavjud bo'lsa);**
- **kirish qism;**
- **adabiyotlar sharhi;**
- **metodologiya;**
- **tajriba-sinov tahlili va natijalar;**
- **foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;**
- **ilovalar (agar mavjud bo'lsa).**

1

1. Dissertatsiyaning kirish (Introduction) qismi dissertatsiyaning umumiy hajmining 10% (800-1000 ta so'z) gacha miqdorini tashkil etadi va u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi;

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari;

1.1

1.2

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati;

Tadqiqotning obyekti va predmeti;

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari;

1.6

1.5


1.4

1.3

2

Dissertatsiyaning navbatdagi mazmunan asosiy hisoblangan qismi tarkiban 3 bobdan iborat bo'lib, bunda tadqiqot masalalari to'liq yoritilishi lozim. qismlari quyidagicha ko'rinishda bo'lishi tavsiya etiladi:

Ushbu asosiy qismning bo'limlari hajm jihatidan o'zaro mutanosib bo'lishi va quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:



Asosiy qism boblari quyidagicha ko'rinishda bo'lishi tavsiya etiladi:

1-BOB	Mazkur qism adabiyotlar sharhiga (literature review) bag'ishlangan bo'lib, unda tadqiqot mavzusi bo'yicha boshqa manbalarda keltirilgan nazariy, amaliy va empirik tadqiqotlar natijalarining tanqidiy tahlili yoritiladi, tadqiqotda gipotezalar keltirish nazarda tutilgan bo'lsa ular asoslanadi, dissertatsiya umumiy hajmining 15 % (1200-1500 ta so'z) gacha miqdorini tashkil etadi;
2-BOB	Bu qism tadqiqot metodologiyasiga bag'ishlangan bo'lib, to'plangan ma'lumotlar manbalari, tadqiqot dizayni, tadqiqotda qo'llanilgan uslublar, tadqiqot paradigmasi, tadqiqot dizaynining cheklavlari hamda foydalanilgan vositalar bayoni keltiriladi. Tadqiqot muammosi va yechimiga qaratilgan taklif etilayotgan metodika va tavsiyalar bo'ladi, dissertatsiya umumiy hajmining 5 % gacha (300-500 ta so'z) miqdorini tashkil etadi;
3-BOB	Ushbu qismda tadqiqot tahlili va natijalari keltiriladi hamda ular muhokama qilinadi, ulardan kelib chiqqan holda tavsiya va takliflar kiritiladi, tavsiyalarga ta'rif va asoslar bayon qilinadi. Ushbu bobni kengaytirish yoki tadqiqot dizayni taqozo etsa qo'shimcha qismlar qo'shish mumkin. Ushbu bob dissertatsiya umumiy hajmining 40 % (3000-4000 ta so'z) gacha miqdorini tashkil etadi.

3

Dissertatsiyaning xulosa qismi dissertatsiyaning oxirgi qismi hisoblanadi va dissertatsiya umumiy hajmining 10 % gacha (800-1000 ta soʻz, yaʼni 4 betdan oshmasligi kerak) miqdorini tashkil etadi va u quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

3.1

Tadqiqotning asosiy ilmiy va amaliy yangiligi va natijalari;

3.2

Tadqiqotning asosiy ilmiy va amaliy yangiligi va natijalari;

3.3

Tadqiqot qamrovi chegaralari;

3.4

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun tavsiyalar

4

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatiga faqatgina matnda iqtibos yoki havola qilingan adabiyotlar manbalari va boshqa manbalar detallashtirilgan, alfavitli (raqamlashgan) roʻyxat koʻrinishida keltiriladi yoki Kembrij tizimidan foydalangan holda rasmiylashtiriladi. Dissertatsiya umumiy hajmining 10 % gacha (800-1000 ta soʻz) miqdorini tashkil etadi

5

Dissertatsiyaning ilova qismiga matnda aks etmagan, dissertatsiya mazmun-mohiyatini yanada chuqur tushunishga qaratilgan, qoʻshimcha sifatida qaraluvchi maʼlumotlar kiritiladi. Bunda ilovaning hajmi dissertatsiya umumiy hajmining 1/3 qismidan oshmasligi lozim. Dissertatsiya umumiy hajmining 5 % gacha (300-500 ta soʻz) miqdoridan oshmasligi kerak.

6

Dissertatsiyada magistrlar professional etika qoidalarining buzilishi (plagiat, maʼlumotlarni soxtalashtirish hamda yolgʻon iqtibos keltirish)ga yoʻl qoʻyilmaydi.

7

Dissertatsiyani rasmiylashtirish tartibi va namunalari Universitetning o'quv, ilmiy-uslubiy Kengash tomonidan tasdiqlangan "Magistrlik dissertatsiyalarini rasmiylashtirish bo'yicha uslubiy qo'llanma"da batafsil keltiriladi va unga ko'ra qat'iy rasmiylashtiriladi.

8

Dissertatsiyaning hajmi titul varaq, mundarija, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashqari mazmunan yaxlitlangan holda 40 betdan oshmasligi lozim.

9

Dissertatsiya magistr ta'lim olgan tilda (kafedra tavsiyasiga muvofiq ingliz tilida yoki rus tilida ham) yozilishi mumkin.

10

Magistratura mutaxassisligi xususiyati hisobga olingan holda magistrlik dissertatsiyasi tarkibiy qismlarining mazmuni va hajmi Universitet o'quv, ilmiy-uslubiy kengashining qarori bilan o'zgartirilishi mumkin.

11

Magistrlik dissertatsiyasini rasmiylashtirish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar va namunalar Universitet Kengashi tomonidan tasdiqlanadi

1. Dissertatsiya matni A4 formatdagi qog'oz varog'ining bir tomonida joylashishi va qoida tariqasida, standart varoq 1,5 qator oralig'ida (**"polutorniy"**) yozilishi lozim. Har bir bet: yuqoridan va pastdan 2 sm; chapdan 3 sm; o'ngdan 1,5 sm hoshiyaga ega; xatboshi 1,27 sm ga teng va bir xilda bo'lishi lozim;
2. Matnni kompyuter vositasida bosib chiqarishda **"Times New Roman"** 14 o'lchamli shriftida "Microsoft Word" matn redaktoridan foydalanish tavsiya qilinadi. Betlar titul varog'idan boshlab oxirgi varoqqacha izchil ketma-ketlikda raqamlanadi. Betning tartib raqami varoqning pastki o'ng burchagida 2 raqamidan boshlab yoziladi. Titul varog'iga 1 raqami qo'yilmaydi;
3. Dissertatsiya tarkibiy qismlarining bosh sarlavhalari **IMRAD** qoidasi bo'yicha (*"Kirish+adabiyotlar sharhi", "Metodologiya", "Tahlil va natijalar" "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" va boshqalar*) bosh harflarda yoziladi;
4. Maqolaning har bir qismi kichik sarlavhalarga ega bo'ladi;
5. Sarlavhalarining yuqori va pastki qismidan 12 o'lchamli ("pt") oraliq qoldirilishi kerak;
6. Dissertatsiya matnida foydalanilgan adabiyotlardan olingan materialga havola qilinganda, rasmiylashtirish qoidalariga asosan amal qiladi;
7. Dissertatsiya matnida foydalanilgan adabiyotlardan olingan materialga havola qilinganda, rasmiylashtirish qoidalariga asosan amal qiladi;
8. Surat, fotosurat, grafik, chizma, diagramma va shu kabilar **"rasm"** so'zi bilan ifodalanib, ular varaqda ko'rish uchun qulay tarzda joylashtirilishi kerak; (1-rasm)
 - 8.1. Rasmlar ikki bet o'rtasida bo'linishi yoki ularning nomlari bo'linishiga yo'l qo'yilmaydi. Paragraf yoki bob rasm bilan tugashi mumkin emas. Rasmni keyingi betga o'tkazish maqsadida o'sha betda bo'sh joy qoldirish maqsadga muvofiq emas;
 - 8.2. Rasmlar ular joylashgan tartib raqami ko'rsatilgan holda, izchil

ketma-ketlikda, rasmning pastida o'rta qismida raqamlanadi (masalan: "1-rasm."), ilovalarda keltirilgan rasmlar bundan mustasno. Har bir rasm nomlanishi kerak. Rasmning nomi uning ostki qismining o'rtasiga («po syentru»), qoraytirilgan («polujirnyy») holda yoziladi. Zarur hollarda rasmga izoh berilishi mumkin va u ham rasmning ostiga qo'yiladi. Rasm boshqa manbalardan olingan bo'lsa ko'rsatish lozim. Manba Garvard usulidagi iqtibos ko'rinishida yoki rasmning pastki qismidan "Manba:" so'zi yozilgach, keltirilishi mumkin. Dissertatsiya davomida manbani keltirishning faqat bir usuli qo'llanilishi talab etiladi (3-ilova);

8.3. Rasmlar ular joylashgan butun dissertatsiya bo'ylab izchil ketma-ketlikda, rasmning pastida o'rta qismida quyidagi ko'rinishda raqamlanadi (ilovalarda keltirilgan rasmlar bundan mustasno);

8.4. Raqamli materiallar jadval ko'rinishida rasmiylashtirilishi mumkin. Jadvallar ular joylashgan tartib raqami ko'rsatilgan holda, izchil ketma-ketlikda, jadvalning tepa o'ng burchak qismida raqamlanadi (masalan: "1-jadval."). Har bir jadval nomlanishi kerak. («Manba» keltirilganda jadval ostida 10-shrift, kursivda hamda satri ("interval") "pered" qismidan "6 pt" kattalikda keltiriladi. Jadvalning nomi uning ustki qismi o'rtasiga («po syentru»), qoraytirilgan («polujirniy») holda yoziladi. Jadval va Jadval nomi oxiriga nuqta qo'yilmaydi (4-ilova);

9. Dissertatsiya matnida beriladigan formulalar (tenglamalar) "Microsoft Word" matn redaktorining "Formula" funksiyasi yordamida aniq yozilgan bo'lishi shart. Katta va kichik harflar, yuqori va pastki indekslar formulada aniq berilishi kerak;

9.1. Formula uchun belgilarning o'lchami quyidagicha ifodalanishi tavsiya etiladi:

- katta harflar va raqamlar 5-6 mm;
- kichik harflar 3 mm dan kam bo'lmagan;
- daraja ko'rsatkichlari va indeksleri 2 mm dan kam bo'lmagan hajmda.

9.2. Formula va tegishli material "LaTeX" formatida berilishi mumkin;

9.3. Belgilarning ma'nolari bevosita formula ostida ularning formuladagi ketma-ketligi bo'yicha beriladi. Har bir belgining ma'nosi yangi qatordan berilishi lozim. Berilgan ma'nolarning birinchi qatori "bunda" degan so'z bilan ikki nuqtasiz boshlanadi;

- 9.4. Formulalar matndan alohida bo'sh qatorlar bilan ajratib yoziladi. Har bir formulaning yuqori va pastki tomonlaridan 12 o'lchamli ("pt") oraliq qoldirilishi kerak;
- 9.5. Agar tenglama bitta qatorga sig'masa, sig'magan qism tenglik belgisi "=" yoki qo'shish "+", ayirish "-", ko'paytirish "x" va bo'lish ":" belgilaridan keyin ko'chirilishi kerak.
- 9.6. Har bir formula tartib raqami ko'rsatilgan holda, izchil ketma-ketlikda, formulaning o'ng tomonida qavs ichida raqamlanadi (masalan: "(1)").

Namuna

Aktivlarning qaytim normasi (inflyatsiya hisobga olinmaganda) barcha pul tushumlarining sotib olingan aktiv narxiga nisbati bilan aniqlanadi:

$$R = \frac{D + (K_1 - K_0)}{P} = \frac{D + \Delta K}{P} \quad (1.1.)$$

Bunda:

R - qaytim normasi;

D - dividend;

$\Delta K = K_1 - K_0$ - kapital ortimi;

P - sotib olingan aktiv narxi.

10. Dissertatsiya matnida ko'rsatilgan rasm, jadval yoki formulaga havola qilinganda, qavs ichida tegishli rasm, jadval yoki formulaning raqami (belgisi) keltirilib, "qarang" degan so'z qo'llaniladi (masalan: ("1.3-jadvalga qarang"));
11. Dissertatsiya matnida beriladigan izohlar izchil ketma-ketlikda raqamlanadi (masalan: "Izoh 1.");
12. Dissertatsiya matnida ko'rsatilgan shaxslarning F.I.O. hamda tashkilot va mahsulotlarning nomlari va boshqa atoqli otlar o'zgartirilib yozilishiga yo'l qo'yilmaydi;
13. Dissertatsiyaning ilovalari alohida betlarda rasmiylashtirilib, izchil ketma-ketlikda raqamlanadi va "ilova" degan so'z bilan ifodalanadi (masalan: "1-ilova"). Ilova tegishli sarlavhaga ega bo'ladi;

14. Ilovalar dissertatsiyadan alohida jildda rasmiylashtirilganda, jildning titul varag'ida dissertatsiya mavzusining nomi va uning ostida bosh harflar bilan "Ilovalar" degan so'z yoziladi;
15. Magistratura mutaxassisligi xususiyatidan kelib chiqqan holda dissertatsiya tarkibiy qismlarining mazmuni va hajmi o'zgartirilishi va kengaytirilishi mumkin.



MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI SARLAVHASI

Dissertatsiyaning sarlavhasi – bu dissertatsiya mazmunini mukammal darajada tavsiflaydigan eng oz soʻzlar birikmasidir. Sarlavha – bu dissertatsiyaning oʻqilishi haqida aytishimiz mumkin boʻlgan yagona qism. Shubhasiz, sarlavhani eng koʻp kitobxonlar oʻqiydi. Ehtimol, minglab odamlar dissertatsiyaning sarlavhasini koʻrishadi, lekin, faqatgina bir necha kishi dissertatsiyani toʻliq oʻqiydi.

Sarlavhaning vazifasi – dissertatsiyani toʻliq oʻqishga qiziqishni hosil qilishdir. Dissertatsiyaga qiziqishi mavjud boʻlganlarning eʼtiborini jalb qilish uchun sarlavha dissertatsiya mazmuniga imkon qadar aniq va toʻliq mos kelishi kerak. Shuning uchun sarlavha soʻzlarini juda ehtiyotkorlik bilan tanlash kerak, ayniqsa ularning mazmuniga, ahamiyatiga va mosligiga eʼtibor berish kerak. Agar sarlavha dissertatsiya mazmunini toʻgʻri yetkazmasa, ushbu dissertatsiya mutaxassislar tomonidan hech qachon oʻqilmasligi mumkin.

Dissertatsiya nomi juda uzun yoki juda qisqa boʻlmasligi kerak va 3-15 soʻzdan iborat boʻlishi kerak (artikl, old-qoʻshimchalar, predloglardan tashqari). Baʼzida dissertatsiya sarlavhalari keraksiz soʻzlar (waste words) mavjudligi sababli juda uzun boʻladi va u soʻzlar hech qanday maʼlumot bermaydigan soʻzlardir. Koʻpincha, bunday soʻzlar sarlavhaning boshida keladi.

Yaxshi dissertatsiya sarlavhasining asosiy xususiyatlari:

- 1 Kamida 3 ta va 15 tadan koʻp boʻlmagan soʻzlardan iborat
- 2 Dissertatsiyaning oʻziga mos
- 3 Keraksiz (waste words) soʻzlarni oʻz ichiga olmaydi

Odatda, dissertatsiya sarlavhasi ega va kesimdan iborat toʻliq jumlani emas, balki, yorliqni oʻzida aks ettiradi. Faqat bir necha jurnallar toʻliq jummalarni sarlavha sifatida ishlatishga imkon beradi. Qoidaga koʻra, dissertatsiya sarlavhasida qisqartmalar, kimyoviy formulalar, dori vositalari va reaktivlarning savdo belgilari (nomlari), tor mutaxassislikka oid, jargon soʻzlar, noodatiy, oʻzgacha yasama atamaları boʻlishi mumkin emas.


Dissertatsiya sarlavha bilan boshlangan boʻlsa ham, koʻpincha dissertatsiya yozilgandan soʻng sarlavha nihoyat shakllanadi va sharhlovchilar va muharrirlarning izohlaridan keyin ham baʼzi hollarda, tahrir qilinadi. Biroq, dissertatsiya yozishni boshlashdan oldin ushbu dissertatsiya uchun «ishchi» nom oʻylab topish kerak.

ANNOTATSIYA (ABSTRACT)GA QO'YILADIGAN TALABLAR

Annotatsiya – dissertatsiyaning qisqacha mazmunini aks ettiradi. Rus tilida bu ko'pincha **«Annotatsiya»** va ingliz tilida **«Abstract»**, **«Resume»**, **«Summary»**, deb nomlanadi. O'qilishi darajasi bo'yicha Annotatsiya sarlavhadan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi. Uning vazifasi – potensial o'quvchilarni tadqiqot ishining mazmuniga yo'naltirish va qiziqtirish hamda to'liq o'qish istagini uyg'otishdir.

Annotatsiyada tadqiqot ishining barcha bo'limlari mohiyati qisqacha bo'lishi kerak, ammo juda qisqartirilgan shaklda. Agar annotatsiya yaxshi yozilgan bo'lsa, unda ishning mazmuni sizning ishingiz bilan qanday bog'liqligini tez va aniq bilib olishingiz mumkin. Bu esa ishni to'liq o'qish zarurligi to'g'risida qaror qabul qilishga yordam beradi. Odatda annotatsiya hajmi 250 so'zdan ortiq bo'lmasligi kerak.

Annotatsiya bitta abzats ko'rinishida yoziladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:



Agar ruxsat etilgan so'zlarning maksimal soni 250 tani tashkil etsa va siz atigi 100 so'zdan foydalansangiz, demak, annotatsiya ishning mazmunini to'liq aks ettirmagan. Bundan tashqari, annotatsiyaning mazmuni keltirilgan 4 bo'limni yetarli darajada ko'rsatib berishi kerak. Dissertatsiyada keltirilgan Tadqiqot maqsadini tavsiflash uchun 200 ta so'z, dissertatsiyaning qolgan barcha (3 ta) bo'limlarining mazmunini yetkazish uchun 50 ta so'zni ishlatish mumkin emas. Dissertatsiya matnida mavjud bo'lmagan ma'lumotlarni Annotatsiyada keltirilmaydi.

KALIT SO'ZLAR (KEYWORDS)

Kalit so'zlar, odatda qidiruv so'zlari deb ham ataladi, ma'lumotlar bazasi qidiruv maydonchalariga kiritiladigan so'zlardir. Ular tadqiqot mavzusining asosiy tushunchalarini ifodalaydi va kundalik hayotda mavzuni tavsiflash uchun ishlatiladigan so'zlardir. To'g'ri kalit so'zlar bo'lmasa, kerakli ma'lumotlarni topishda qiynalishingiz mumkin.

Kalit so'zlarni tanlash ko'p bosqichli jarayon bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- *mavzuning asosiy tushunchalarini aniqlash;*
- *mavzuni tavsiflash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan sinonimlar va antonimlarga aqliy hujum;*
- *qisqartmalar (abbreviatura) haqida to'liq tasavvur va ularni to'g'ri talaffuz qilish.*

Kalit so'zlar dissertatsiyani bazalarda qidirish uchun kerak. Mazmuni va ma'nosi nuqtai nazaridan, kalit so'zlar annotatsiya va tadqiqot ishining mazmuniga yaqin bo'lishi lozim. Kalit so'zlar sintaktik tuzilishga ega emas va odatda ular bosh kelishikda beriladi. Kalit so'zlar asosiy natijalar, qiziqishning asosiy jihatlarini aks ettirishi kerak. Kalit so'zlar soni odatda 8-12 dona atrofida bo'lishi tavsiya etiladi va odatda jurnal talablari tomonidan belgilanadi.



KELTIRILGAN QISQARTMALAR (ABREVIATURA)

Qisqartma soʻzlar (Abbreviatura (*italiancha* “*abbreviature*” – *qisqartma*, *lotincha* “*abbrevio*” – *qisqartiraman*) – barqaror soʻz birikmalari komponentlarining bosh harflarini yoki maʼlum qismlarini olib qoʻshish bilan hosil qilingan soʻzlar hisoblanadi.

Qisqartmalar asosan, ot turkumiga mansub boʻlib, quyidagi yoʻllar bilan hosil qilinadi:

1. Soʻz birikmasi komponentlarining birinchi harflarini olib qoʻshish bilan (XDP – Xalq demokratik partiyasi, DTM – Davlat test markazi, OAK – Oliy attestatsiya komissiyasi). Qisqartmalarning bu turi ilmiy adabiyotlarda abbreviatura deb ham ataladi; 2) soʻz birikmasi tarkibidagi 1-soʻzning 1-boʻgʻinini, qolgan soʻzlarning 1-harflarini olib qoʻshish bilan OʻzMU (Oʻzbekiston milliy universiteti), “Oʻzas” (“Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati”);
2. Soʻz birikmasi tarkibidagi soʻzlarning bosh qismlarini olib qoʻshish bilan (biofak – biologiya fakulteti, jurfak – jurnalistika fakulteti);
3. Soʻz birikmasi tarkibidagi 1-soʻzning 1-boʻgʻinini, qolgan soʻzlarni qisqartirmay qoʻshish bilan (oʻzdonmahsulot, oʻzgazloyiha);
4. Aralash yoʻl bilan (oʻzbektelekom, oʻzteleradiokompaniya, oʻzavtoyoʻl) va boshqalar.

Qisqartma soʻzlar xalqaro tashkilotlar (BMT, YUNESKO), mamlakat va davlatlar (XXR, RF, AQSh), siyosiy partiyalar, harbiy uyushmalar (OʻzXDP, NATO), ilmiy-oʻquv muassasalari (OʻzR FA, OʻzDJTU, FarDU), vazirlik, idora, muassasa, tashkilot, korxonalar (XTV, DTM, Oʻzmashxolding, Toshshaharyoʻlovchi), mashina, asbob-uskunalar va inshootlar (EHM, ATS, GES) va boshqalarning nomlarini bildiradi.

Qisqartmalar tayyor holda boshqa tillardan oʻzlashtirilishi (YUNESKO, FIFA, FIDE, NATO, AES) yoki muayyan til, masalan, oʻzbek tili materiallari asosida hosil qilinishi mumkin. Keyingi turga mansub oʻzbekcha Qisqartma soʻzlarning aksariyati rus tilidagi soʻz birikmalari va ular asosidagi qisqartma soʻzlarning kalkalari hisoblanadi, masalan, BMT – OON, DAN – GAI kabilar.

I BOB. KIRISH

Dissertatsiyaning kirish bo'limi dissertatsiyada keltirilgan tadqiqot natijalarini tushunish va baholashga imkon beradigan, boshqa manbalarga murojaat qilinmaydigan ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak. Bundan tashqari, kirish bo'limida tadqiqotning zarurligi va dolzarbligi uchun asoslar keltirilishi kerak.

Odatda, kirish bo'limi to'rt qismga bo'linadi:

- 1) **Ilmiy kontekstni yaratish** (establishing a context).
- 2) **Tadqiqot bilan bog'liq adabiyotlarni o'rganish** (reviewing the literature).
- 3) **Adabiyotlarni o'rganish natijasida aniqlangan muammolar, o'rganilmagan muammolar va bo'shliqlar tavsifi** (establishing a research gap).
- 4) **Aniqlangan muammolar va bo'shliqlar asosida tadqiqot maqsadi va vazifalarini aniqlash** (stating a purpose).

1

Ilmiy kontekstni yaratish (establishing a context)

Ushbu bo'limda dissertatsiyada keltirilgan tadqiqotni katta muammoning qanday bir qismiligini ko'rsatish kerak. Mavzuga doir iloji boricha ko'proq dissertatsiyalarni o'qing. Boshqa dissertatsiyalarda mualliflar ilmiy kontekstni qanday tasvirlayotganiga katta e'tibor bering. Ushbu ilmiy kontekstning aniqligi yoki aniq ko'rsatilmaganligi, tadqiqotingizning dolzarbligini aniqlaydi.

Agar siz muammoni aniq bayon qila olmasangiz, unda o'quvchida dissertatsiyani o'qishga qiziqish o'yg'onmasligi mumkin. Agar muammoni tushunmagan talabalar dissertatsiyani oxirigacha o'qishni harakat qilsalar ham, siz a'lo darajada hal qilgan muammo ularda hech qanday taassurot qoldira olmaydi. Bu jihatdan ilmiy dissertatsiya yozishni oddiy jurnal yoki gazeta uchun dissertatsiya yozish bilan taqqoslash mumkin. Jurnal o'quvchilari dissertatsiyani oxirigacha o'qishlari uchun dastlab diqqatni jalb qilish kerak.

2
Tadqiqot bilan bog'liq adabiyotlarni o'rganish (reviewing the literature)

Ushbu bo'lim sohadagi boshqa tadqiqotchilar tomonidan nima va qanday amalga oshirilganligi haqida umumiy ma'lumotga bag'ishlangan. Sizning dissertatsiyangizda tadqiqotga bevosita tegishli bo'lgan barcha manbalarni taqdim etish lozim.

Sizning tadqiqot ishingizni tushunish uchun zarur bo'lgan va faqat dissertatsiyaning maqsadi va vazifalarini, tadqiqot gipotezasini, ishlatilgan tadqiqot usullarini asoslashga xizmat qiladigan barcha nashrlarni (manbalarni) tasvirlab bering.

Dissertatsiyangiz xalqaro jurnallarning taqrizchilari tomonidan ijobiy baholanishi uchun keltirilgan manbalarni tanlashda juda ehtiyotkor va sinchkov bo'lish kerak. Agar jurnal taqrizchisi biror manbani dissertatsiyangizning adabiyotlar sharhiga qo'shishni talab qilsa, bahslashmang va taqrizchining talabini bajaring.

Agar siz o'zingizning dissertatsiyangiz uchun taqrizchilarni tanlasangiz, unda (imkon bo'lsa) bo'lajak taqrizchilarning nashrlariga murojaat qilishni unutmang. Shuningdek, ushbu kichik bo'limda raqobatbardosh usullar va ularning natijalarini taqqoslash orqali tadqiqot usulini tanlashni asoslash maqsadga muvofiqdir. Boshqa manbalardan olingan fikrlar, ma'lumotlar, g'oyalar uchun iqtibos keltirilishi lozim.

Siz tomondan dissertatsiyada keltirilgan barcha (references) dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida o'z aksini topishi kerak. Bibliografik ma'lumotga katta e'tibor bering va har bir manbani adabiyotlar ro'yxatida keltirib o'ting.

3
Adabiyotlarni o'rganish natijasida aniqlangan muammolar, o'rganilmagan muammolar va o'rganilmagan bo'shliqlar tavsifi

Ushbu bo'limda siz o'quvchiga adabiyotlarni ko'rib chiqish tugallanganligi to'g'risida signal berasiz va unda quyidagi muhim aspektlarni tasvirlab berasiz:

- ushbu tadqiqotlar hali hech kim tomonidan o'tkazilmaganligi yoki muammoning bu tomoni e'tiborga olinmaganligi, e'tiborsiz qoldirilganligi;
- turli tadqiqotchilarning natijalari, farazlari, xulosalari, tadqiqot usullari o'rtasida qarama-qarshiliklar yoki ziddiyatlar, bo'shliqlar (gaps) mavjudligi;
- tadqiqotni davom ettirish yoki kengaytirish kerak ekanligi.

4
Aniqlangan muammolar va bo'shliqlar asosida tadqiqot maqsadini va vazifalarini aniqlash

Ushbu bo'limda tadqiqotning maqsad va vazifalarini ta'riflab beriladi. Dissertatsiyaning keyingi bo'limlari (metodlar, natijalar va munozara) yozilgandan so'ng, tadqiqotning maqsad va vazifalari o'zgartirilishi mumkin. Tadqiqot maqsadlari va vazifalari dissertatsiyaning qolgan bo'limlarida keltirilgan matn bilan mazmun jihatdan muvofiq bo'lishi kerak. Agar tadqiqot natijalari o'zgartirilgan bo'lsa, muallif tadqiqotning maqsadlari va vazifalarini o'zgartirishi lozim.

Dissertatsiyaning kirish qismi tadqiqotning mohiyati to'g'risida qisqa, lekin yaxlit tasavvur hosil qilishga imkon berishi kerak. Mazkur qismda dissertatsiya tadqiqoti mohiyatini tavsiflaydigan asosiy ma'lumotlar puxta tahrir qilingan, qisqa, aniq va ravon bo'lishi kerak.

Kirish quyidagilarni qisqacha o'z ichiga olishi va keltirilgan ketma-ketlikda rasmiylashtirilishi lozim:

- 1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi;
- 1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalari;
- 1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari;
- 1.4. Tadqiqot obyekti va predmeti;
- 1.5. Tadqiqotning yangiligi;
- 1.6. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati;
- 1.7. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.



II-BOB. ADABIYOTLAR SHARHI

Adabiyot sharhi - bu kontekstda joylashtirilgan ma'lum bir mavzu bo'yicha akademik adabiyotlarni bilish va tushunishni nazarda tutuvchi akademik yozuv shakli hisoblanadi. Adabiyotlarni ko'rib chiqish, materiallarni tanqidiy baholashni ham o'z ichiga olib, bunda adabiyotlarni ko'rib chiqishning ikkita asosiy maqsadi mavjud: birinchidan, mavjud tadqiqotlar, nazariyalar va dalillarni qamrab oladigan tarkib, ikkinchidan, ushbu tarkibni tanqidiy baholash va muhokama qilishdir.

Agar siz magistrlik dissertatsiyasini yozishingiz kerak bo'lsa, sizdan adabiyot sharhini yozishdan boshlashingiz talab qilinadi. Adabiyotlarni ko'rib chiqish - bu siz tanlagan mavzu yoki mavzu bo'yicha mavjud adabiyotlarni qidirish va baholashni nazarda tutadi.

Adabiyotni o'rganish to'rtta asosiy maqsadga ega:

- Tanlagan ta'lim sohasi va yo'nalishi bo'yicha adabiyotlarni o'rganishni nazarda tutadi;
- ushbu adabiyotdagi ma'lumotlarni umumlashtiradi;
- mavjud bilimlardagi kamchiliklarni aniqlash orqali to'plangan ma'lumotlarni tanqidiy tahlil qiladi;
- nazariya va qarashlarning chegaralanganligini ko'rsatish orqali va keyingi tadqiqotlar uchun sohalarini shakllantirish va bahsli sohalarini ko'rib chiqish orqali adabiyotni uyushqoqlik bilan taqdim etadi.

Adabiyotlarni ko'rib chiqish mavzuni chuqur o'zlashtirganingizni ko'rsatib, bilimlar majmuasi bilan tanishligingizni namoyish etadi va ishingizning ishonchligini oshiradi.

Oldingi tadqiqotlarni umumlashtiradi va loyihangiz u bilan qanday bog'langanligini izohlab beradi.

Boshqalardan o'rganganingizni va tadqiqotingiz yangi g'oyalar uchun boshlang'ich nuqta ekanligini ko'rsatadi. Bunda Sizning asosiy vazifangiz kutubxona emas, balki argument yaratish bo'lishi lozim.

Dissertatsiya yoki boshqa ilmiy asarlar kabi katta hajmdagi yozma ishda adabiyotlarni ko'rib chiqish odatda aniq mavzu bo'yicha qaror qabul qilingandan keyin bajariladigan birinchi vazifalardan biridir. Tanqidiy tahlil bilan birgalikda adabiyotlarni o'qish mavzuni aniqlashtirish va tadqiqot savollarini tuzishga yordam beradi. Adabiyotlarni ko'rib chiqish yangi tadqiqot o'tkazishdan oldin ma'lum bir sohadagi joriy

tadqiqotlar bilan tanishish va tushunishingizni aniqlashga yordam beradi. Adabiyotni ko'rib chiqqandan so'ng, siz qanday tadqiqotlar o'tkazilganligini bilishingiz va mavzuingizda noma'lum narsalarni aniqlay olishingiz kerak.

Adabiyotlarni ko'rib chiqish va yozishda quyidagilarga e'tibor qilish zarur:

oldingi tadqiqot va nazariyalarni umumlashtirish va tahlil qilish;

munozarali da'volarni aniqlash;

hozirgi kunga qadar tadqiqotda mavjud bo'lgan bo'shliqlarni ta'kidlab o'tish

Adabiyotni ko'rib chiqishning turli jihatlariga e'tibor qaratish uni rejalashtirish, ishlab chiqish, takomillashtirish va yozish uchun foydali bo'lishi mumkin.

Adabiyot sharhini yozish boshqa topshiriq vazifalari bilan juda ko'p umumiy xususiyatlarga ega.

Akademik yozish sahifasi turli manbalardan olingan ma'lumotlarni tartibga solish va tuzish yo'llarini va o'qish va yozish jarayonida o'z argumentingizni qanday rivojlantirishni taklif qiladi.

Tanqidiy fikrlash sahifasida qanday qilib ko'proq tanqidiy tadqiqotchi bo'lish bo'yicha maslahatlar va o'ylash va argumentni rivojlantirish bosqichlarini ajratish uchun foydalanishingiz mumkin bo'lgan shakl mavjud.

Akademik yozishning boshqa shakllarida bo'lgani kabi, adabiyotlarni ko'rib chiqish ham Talabalar xulq-atvori kodeksiga rioya qilish va manbalarga iqtibos keltirish va havolalar orqali boshqalarning ishini e'tirof etish orqali yaxshi akademik amaliyotni namoyish qilishi kerak.

III-BOB. METODOLOGIYA

Ushbu bo'limda natijalarni olish uchun ishlatilgan usullar va metodlar keltiriladi. Birinchidan, odatda eksperimentlarning umumiy dizayni keltiriladi (**design of the experiment**). So'ngra esa tajribalar shu qadar batafsil yoritiladiki, har qanday vakolatli mutaxassis o'z laboratoriyasida ushbu dissertatsiya matnidan foydalanib, tajribalarni takrorlashi mumkin bo'lishi kerak. Ko'p mualliflar ushbu bo'limni o'tkazib yuboradilar. Taqrizchi qo'lyozmani o'qiyotganda, tadqiqot metodologiyasining qanchalik batafsil ekanligiga alohida e'tibor beradi. Agar taqrizchi yuqoridagi tavsifdan foydalanib tajribalarni takrorlash mumkinligiga shubha qilsa, erishilgan katta natijalarga qaramay, sizning dissertatsiyangiz himoyaga qo'yilishi rad etiladi.

Standart usullar, metodlar va jarayonlardan foydalanganda tegishli manbalarga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir. Agar standart usul va metodlarni o'zgartirgan bo'lsangiz, standart usullarning modifikatsiyasini batafsil tavsiflash lozim. Agar siz ilgari hech qayerda nashr etilmagan o'zingizning yangi usulingizdan foydalanayotgan bo'lsangiz, hamma kerakli ma'lumotlarni berishingiz kerak. Agar siz ilgari o'z tadqiqot usul va metodlaringizdan qaysidir ilmiy nashrlaringizda foydalangan bo'lsangiz, unda ushbu nashrlarga iqtibos (**reference**) bilan cheklanib qolishingiz mumkin.

Usullar va protseduralar odatda xronologik tartibda tavsiflanadi. Matematik hisob-kitoblarni shu qadar aniqlik bilan berish kerakki, ularni osongina qayta ishlab chiqarish va natijalarning to'g'riligini tekshirish imkoni bo'lsin. Barcha kerakli ma'lumotlar, formulalar, tenglamalarni dissertatsiyaga qo'shing, ularda qanday o'zgarishlar yuz berganini tavsiflang. Agar matematik o'zgarishlarning batafsil tavsifi juda katta joyni egallasa, ularni dissertatsiyaning ilovasida keltirishingiz mumkin.




IV BOB. TAHLIL, NATIJALAR VA MUNOZARALAR

Tahlil va natijalar bo'limi – bu dissertatsiyaning markaziy qismi, uning kulminatsion bo'limidir. Ushbu bo'limda erishilgan eksperimental yoki nazariy natijalar keltiriladi. Tadqiqotga tegishli bo'lgan natijalar ushbu bo'limda keltiriladi.

Natijalar odatda biror shaklda va ko'rinishda taqdim etiladi: jadvallar, grafikalar, diagrammalar, tenglamalar, fotosuratlar, chizmalar yoki matn ko'rinishida. Rasmlarda qisqacha sharhlar, taqqoslashlar, statistik baholar keltiriladi. Natijalar bo'limida faqat natijalar keltiriladi. Natijalar bo'limi qisqa bo'lishi kerak.

Natijalarni izohlash, boshqa tadqiqotchilar ma'lumotlari bilan taqqoslash va shunga o'xshash amallar keyingi munozara bo'limiga qoldiriladi.

Mualliflar dissertatsiyada tadqiqotlar natijasini quyidagi 3 turdagi ifodalash orqali amalga oshiradilar:



Jadvallar va grafiklarni tavsiflashda muallif qisqa ma'lumot berishi maqsadga muvofiqdir. Dissertatsiyani o'quvchi shaxs tadqiqotning natijasini topa olishi kerak.

Dissertatsiyani yozishda tadqiqot natijalari qisqa va lo'nda shaklda ko'rsatiladi va so'ngra munozara (muhokama) etish boshlanadi. Munozara bo'limi – dissertatsiyaning eng qiyin qismidir. Natijalar bo'limida dalillar va faktlar keltirilsa, munozara bo'limida muallifning fikrlari, g'oyalari, tadqiqot davomidagi muammolari, amaldagi qo'llanishi muhokama qilinadi. Munozara bo'limi ko'proq nazariy, umumlashtiruvchi va umumiy muammoga oid bo'lishi kerak. Munozara bo'limi bevosita amaliyot bilan ko'proq bog'liq bo'lishi lozim, chunki unda olingan natijalarning ahamiyati va ularni amalda qo'llash muhokama qilinadi. Natijalar juda qiziqarli va yaxshi taqdim etilgan bo'lishiga qaramay, ularning natijalari yetarli darajada muhokama qilinmaganligi sababli ko'p dissertatsiyalar jurnallarning muharrirlari tomonidan nashr rad etiladi.

Munozara bo'limida quyidagilar keltirilishi mumkin:

- 1) tadqiqotning maqsadi va gipotezasini eslatish;
- 2) asosiy topilmalarni sanab o'tish (gipoteza rad yoki qabul etilganligidan qat'i nazar; tadqiqot ijobiy yoki salbiy natijalarga erishishdan qat'iy nazar; boshqa tadqiqotchilarning natijalari bilan ziddiyatda yoki muvofiqlikda bo'lishidan qat'i nazar);
- 3) natijalarni umumlashtirish;
- 4) dissertatsiya kirish qismida keltirilgan vazifalar bajarilishi yoki bajarilmaslik sabablari;
- 5) muallifning fikriga ko'ra, tadqiqotning ushbu natijalariga erishish yoki erisha olmaslik sabablarini keltirish;
- 6) tadqiqot davomida paydo bo'lgan to'siqlar va cheklovlar haqida ma'lumot;
- 7) tadqiqot natijalarini amaliyotda qo'llanish tavsiyalari;
- 8) kelgusi tadqiqotlar uchun yo'nalish taklif qilish (ushbu tadqiqotga ko'ra, qaysi muammolarni yanada ko'proq o'rganish kerak? Ushbu tadqiqot natijasida qaysi muammolar va savollar ochiq qoldirildi?);
- 9) boshqa mualliflar tadqiqotlarini tanqid etish, rad etish yoki qo'llab- quvvatlash, baxs yuritish;
- 10) tadqiqotga doir muallifning fikrlari, tanqidi, savollari, gumonlari, kelajakdagi maqsadlari va h.k.

Munozara bo'limi sizning fikrlaringiz va g'oyalaringizni ifodalash uchun eng mos joy. Bu erda siz boshqa tadqiqotchilar bilan bahslashish, yangi gipoteza, fikrlar, farazlar, nazariyalarni taklif qilishingiz mumkin. Agar gipoteza dissertatsiyaning kirish qismida shakllantirilgan bo'lsa, unda muhokamada gipoteza tasdiqlangan yoki tasdiqlanmaganligini yozish kerak.

Munozara bo'limi sizning fikrlaringiz va g'oyalaringizni ifodalash uchun eng mos joy. Bu erda siz boshqa tadqiqotchilar bilan bahslashish, yangi gipoteza, fikrlar, farazlar, nazariyalarni taklif qilishingiz mumkin. Agar gipoteza dissertatsiyaning kirish qismida shakllantirilgan bo'lsa, unda muhokamada gipoteza tasdiqlangan yoki tasdiqlanmaganligini yozish kerak.

Pedagogik yo'nalishlarda ushbu bob tajriba sinov ishlarini tashkil etish va natijalar tahlilini nazarda tutadi. Bunda magistrlik dissertatsiyasi tajriba-sinov ishlarini tashkil etish magistr uchun muhim va maqsadli jarayon bo'ladi. Bu jarayon orqali talaba o'z ko'nikmalari, tajribalari va ilmiy tushunchalarini sinovlarda qo'llab-quvvatlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Magistrlik darajasini olish uchun tajriba-sinov ishlarini tashkil etishning bir necha muhim aspektlari mavjud:

1. Mavzu tanlash: Talaba dissertatsiya mavzusini tanlashda o'z qiziqishlari va malakalari bo'yicha muhimlikka e'tibor beradi. Mavzu o'zining sohasidagi muammolarga yondashuv topish, yangi ilmiy yondashuvlar kiritish yoki amaliyotga ta'sir qilish imkonini berishi kerak.

2. Maqsadlar: Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda o'quvchining maqsadlari aniq belgilanishi lozim. Maqsadlar dissertatsiya mavzusidagi muammolarni yechish, yangi bilimlarni oshirish yoki amaliyotga ta'sir qilish bo'lishi mumkin. Maqsadlar belgilanishida amaliyotga yo'naltiriladigan ishlar va ularning kengaytirilishi kutiladi.

3. Sinov obyektlari va usullari: O'quvchi sinov obyektlari va sinov usullarini aniq belgilab, tajriba-sinovlarining muhim ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni to'plashga intiladi. Sinov obyektlari o'quvchi tomonidan o'rganilayotgan sohaning kerakli obyektlari bo'lishi mumkin. Sinov usullari esa amaliyotga ta'sir qilish uchun kerakli bo'lgan texnikalar va statistik analiz usullarini o'z ichiga oladi.

4. Sinovlarni tashkil etish tartibi: Talaba sinovlar tashkil etish tartibini belgilaydi. Bu tartib sinovlar o'tkazilishi va natijalarining tekshirilishi, magistr tomonidan qo'llaniladigan vositalar va resurslarni belgilashni o'z ichiga oladi. Sinovlarni tashkil etish tartibi, sinovlar jarayonida muhimligini saqlab qoladigan va natijalarining aniqlanishini ta'minlovchi faktor bo'ladi.

5. Ma'lumotlarni tahlil qilish: Tajriba-sinovlardan olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, talabaning magistrlik dissertatsiyasining asosiy qismi hisoblanadi. Bu tahlil jarayoni statistik analizlar, grafiklar, jadvallar yoki boshqa ilmiy usullar yordamida amalga oshiriladi. Ma'lumotlarni tahlil qilish o'quvchiga sinov natijalarini aniq va tabiiy tafsilotlar bilan ta'riflash imkonini beradi.

V-BOB. XULOSA

Xulosa qismini shakllantirishdan maqsad tadqiqotchining amalga oshirgan ishlari va asosiy natijalarini eslatib qo'yishdir.

Yaxshi xulosa o'quvchiga tadqiqot orqali erishilgan natijalarni eslatish bilan birga o'rganish sohasi doirasida foydali jihatlarni ochib berishdir. Shuningdek, eng muhim topilmalar va aloqalarni ko'rib chiqishni nazarda tutadi.

Shuni e'tiborda tutish lozimki, xulosa hech qachon yangi ma'lumot bermasligi kerak, balki ilmiy tadqiqot jarayonidagi muhim aloqalarni yakuniy fikr-mulohazalar orqali ko'rib chiqish kerak.

Xulosaning tuzilishi quyidagicha bo'lishi lozim:

1. Gipoteza va maqsad xulosa boshlanishida albatta izohlanishi lozim.

- tinglovchilarga tadqiqot mavzusini eslatib qo'yish;
- gipoteza va tadqiqot maqsadlarini qayta tartibga solish;
- avval ilgari surilgan fikrlarni takrorlamaslik, balki, fikrlarni umumlashtirish va aniq ifodalash;
- odatda, 1-2 jumladan oshmasligi zarur.

2. Asosiy fikr-mulohazalar;


- ilmiy ishning asosiy qismlarini ko'rib chiqing.
- eng muhim topilmalarni ta'kidlang, ya'ni tadqiqot maqsadlaringiz va gipotezangizga mos keladiganini;
- asosiy paragraflarni qayta o'qib chiqish va taqdim etilgan g'oyalar va faktlarni tavsiflash foydali bo'lishi mumkin.

3. Mavzu doirasida ilmiy pragnoz, uning ahamiyati va ta'sirini e'tiborda tuting.




ESLATMA!!!

- Xulosa bo'limining qolgan qismi shunchaki taqdim etilgan ko'plab g'oyalarni yetkazish haqida bo'ladi, lekin, ilmiy abstraksiyani nazarda tutishi lozim.
- muhokamangizda olib borgan tadqiqotingiz va erishilgan natijalar o'rtasida muhim aloqalarni o'rnatgan bo'lishingiz kerak;
- maqsadlar va natijalar, bunda sizning sohangiz uchun qanday ahamiyatga ega ekanligini nazarda tutib, sohaga qo'shgan hissangizni qayd etishingiz mumkin.




Manba turini (masalan, Отчёт, Веб-сайт, Электронный источник va h.k.) tanlab olamiz va shu manba haqida ma'lumotni jadvalga kiritamiz.


Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini shakllantirish uchun «Список литературы» tugmasini bosamiz va bizga kerakli shakldagi bibliografik ro'yxatni tanlab olamiz (masalan, «Список литературы» yoki «Цитируемые труды»)



Bibliografik ro'yxatni o'zgartirish, o'chirish va yangi ma'lumotlarni kiritish uchun «Управление источниками» tugmasi bosiladi.



«Диспечер источников» jadvalida «Текущий список» qismida siz shakllantirgan manbalar ro'yxati ko'rinadi. «Главный список» qismida esa kompyuterda mavjud bo'lgan barcha manbalar ko'rinadi.



Tadqiqotchi ushbu funksiyalardan samarali foydalansa, adabiyotlar va manbalar ro'yxati avtomatik tarzda Microsoft Word muharriri tomonidan xatolarsiz shakllantiriladi (5-ilova).

Adabiyotlar to'g'risidagi ma'lumotlar quyidagilarni aks ettirishi kerak: Muallifning familiyasi (to'liq) ismi-sharifi (inisiallarni ishlatsa bo'ladi), nashr etilgan yili, adabiyot nomi, shahar nomi, nashriyot nomi, adabiyot betlari soni.

Nashr nomi va shahar nomi bosh kelishikda to'liq yoziladi. Faqat, Toshkent - T. Moskva - M., Sankt-Peterburg - SP deb yozilishi mumkin. Agar 2 ta shaharda nashr etilgan bo'lsa. Masalan. M., SP deb yoziladi. 2 ta nashriyot nomi esa "O'qituvchi": "Fan" deb yoziladi.

Vaqtli matbuot nashrlari to'g'risidagi ma'lumotlar quyidagilardan iborat bo'lishi kerak: Muallifning familiyasi (to'liq) ismi-sharifi (inisiallarni ishlatsa bo'ladi), nashr etilgan yili, maqola nomi, jurnal nomi, seriya nomi, tom, jurnal raqami, maqola yozilgan betlari.

Standart to'g'risidagi ma'lumotda standart belgisi va ismi ko'rsatiladi.

Masalan, GOST 7.1-99.



MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI HIMOYASINI AMALGA OSHIRISHGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Magistrlik dissertatsiyasi yuqoridagi IMRAD talablari asosida rasmiylashtirilgandan so'ng quyidagi shartlar bajarilgandagina himoyaga tavsiya qilinadi:

1

Dissertatsiya belgilangan talablar asosida uning asosiy qismi 40 bet atrofida rasmiylashtirilib, bosma shaklda taqdim qilinadi. Dissertatsiyaning yakuniy tadqiqotlari bo'yicha natijasi esa IMRAD qoidasi asosida maqola sifatida O'zbekiston Respublikasida oliy attestatsiya komissiyasining ro'yxatiga kirgan "O" dan farqli yuqori impakt faktorli xalqaro jurnallarda yakka mualliflik tartibida, shuningdek, kamida ikkita xalqaro yoki mahalliy konferensiyalarda tezislari chop etilgan bo'lishi lozim.

2

Dissertatsiya rasmiy himoya sanasidan kamida 1 oy oldin dastlabki himoyadan o'tkazilishi lozim.
Talabalar kafedra tomonidan tuzilgan komissiya va ilmiy rahbar (ilmiy maslahatchi) ishtirokida dastlabki himoyadan o'tadi.

3

Ichki va tashqi taqrizchilarni oliy ta'lim muassasasining tegishli kafedrasini tavsiya etadi va ularning ro'yxati oliy ta'lim muassasasining ilmiy ishlar bo'yicha prorektori tomonidan tasdiqlanadi.

4

Taqrizchilar vazifalariga quyidagilar kiradi:
- taqriz yozish uchun unga taqdim etilgan dissertatsiyada professional etika qoidalarining buzilish holatlari (plagiat, ma'lumotlarni soxtalashtirish hamda yolg'on sitata keltirish)ni aniqlash va dissertatsiyaning dolzarbligi, ilmiyligi va yakunlanganligi haqida xulosalar berish;

5

Taqrizchi dissertatsiyada talaba tomonidan professional etika qoidalari buzilganligi (plagiat, ma'lumotlarni soxtalashtirish hamda yolg'on sitata keltirish)ni aniqlagan taqdirda, mazkur qoida buzilishlarini qisqa muddatda tuzatish imkoniyati mavjud bo'lmasa, mazkur dissertatsiyani dastlabki himoyaga tavsiya etmaslik haqida taqriz beradi.

6

Talaba tomonidan dissertatsiya dastlabki himoya sanasiga qadar kafedraga bosma muqovalangan hamda elektron shaklda taqdim etilishi lozim.

7

Dastlabki himoyadan o'tmagan, shuningdek uzrsiz sabablarga ko'ra rasmiy himoyaga taqdim etish muddati va tartibi buzilgan dissertatsiyalar rasmiy himoya qilishga ruxsat etilmaydi. Bunda uzrli sabablar deb talabaning kasalligi (kasallik varaqasi mavjud bo'lgan holda) yoki o'ziga bog'liq bo'lmagan boshqa sabablarga muvofiq oliy ta'lim muassasasiga kelish imkoniyati cheklangan holatlar tushuniladi.

8

Dastlabki himoyadan keyin 1 hafta muddatda komissiya xulosasi bo'yicha tegishli kafedralar hisoboti dissertatsiya mavzusi, talaba familiyasi, ismi, otasining ismi hamda ilmiy rahbari, mutaxassisligi ko'rsatilgan holda dekanatga taqdim qilinadi. Olingan hisobotlar asosida Fakultet dekani tomonidan asosiy himoyaga qo'yiladigan talabalar ro'yhati asosida talabalarga magistrlik dissertatsiyasi himoyasiga ruxsat berish bo'yicha rektor buyrug'i rasmiylashtiriladi.

9

Dissertatsiyalarning rasmiy himoya sanasi oliy ta'lim muassasasi rektori buyrug'i bilan tasdiqlangan jadvalga muvofiq belgilanadi.

10

Dissertatsiya rasmiy himoyaga taqdim etilganidan keyin unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga ruxsat etilmaydi.

11

Magistrlik dissertatsiyasining rasmiy himoyasi oliy ta'lim muassasasining Davlat yakuniy attestatsiya komissiyasi (keyingi o'rinlarda Komissiya deb ataladi) tomonidan o'tkaziladi.

Rasmiy himoya natijalari Komissiya raisi tomonidan tasdiqlanadigan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

12

Dissertatsiyaning rasmiy himoyasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- talabaning taqdimoti;
- talabaning Komissiya a'zolarining savollariga bergan javoblari;
- Komissiya a'zolarining dissertatsiya bo'yicha sharhlari;
- Komissiya a'zolari tomonidan dissertatsiyaga berilgan tavsiya va e'tirozlarga talabaning bildirgan fikrlarini.

13

Talabaning dissertatsiya taqdimoti 20 daqiqadan oshmagan holda elektron shakldagi materiallar bilan boyitilishi lozim.

14

Talabaning dissertatsiya taqdimotida quyidagi masalalar yoritib berilishi lozim:

- dissertatsiya mavzusining dolzarbligi;
- dissertatsiyaning maqsad va vazifalari;
- dissertatsiya tarkibi;
- tadqiqotning nazariy poydevori, ya'ni manbalarni tanqidiy ko'rib chiqish natijasida hosil bo'lgan va dissertatsiyaning asosiy qismini tashkil etuvchi tizimlashtirilgan nazariy bilimlar;
- tadqiqotning metodologik asosi tavsifi;
- tadqiqot olib borilishiga doir farazlar va cheklovchi shart-sharoitlar;
- talaba tomonidan dissertatsiyani bajarish davomida olingan asosiy natijalar va ularning dissertatsiya mavzusiga to'g'ri kelishi, ishonchliligi va qo'llanilish sohasi;
- talaba tomonidan olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati;
- tadqiqot natijalarini rivojlantirish istiqbollari.

15

Talabadan taqdimotda o'rganilgan muammoga tegishli masalalarni ilgari surish va ularni hal etish, umumiy tendensiyalar va muayyan holatlarni tizimli ravishda o'rganish, hodisalarni tadqiq etish, tahlil qilish va prognozlashning metodik uslublarini bilishi va qo'llay olishini namoyon etishi talab etiladi.

16

Rasmiy himoyada Komissiyaning har bir a'zosi talabani quyidagi mezonlar asosida baholaydi:

- dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, undagi masalalarning aniqligi hamda ularning mavzuga aloqadorligi;
 - dissertatsiya mavzusini ochib berishda hamda undagi masalalarni hal qilishda talabaning mustaqil yondashuvi;
 - dissertatsiyani yoritishda foydalanilgan ilmiy adabiyotlar, ilmiy nashrlar, normativ-huquqiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar, shuningdek chet tildagi manbalar tanqidiy tahlilining to'liqligi va chuqurligi;
 - dissertatsiyaning maqsadi, undagi masalalar va farazlarni shakllantirishda nazariy yondashuvlarning ishlatilish darajasi;
 - dissertatsiyadagi masalalarni hal qilishda sifat va miqdoriy tadqiqot usullaridan foydalanishning asoslanganligi hamda foydalanilgan tadqiqot usullari imkoniyatlari va chegaralarining tanqidiy tahlili;
 - talaba tomonidan yig'ilgan va shakllantirilgan birlamchi hamda ikkilamchi ma'lumotlarning hajmi va yangilik darajasi, ularning dissertatsiyadagi masalalarga mosligining asoslanishi, ularni to'plash usullarining tanqidiy tahlili;
 - talaba tomonidan to'plangan va shakllantirilgan ma'lumotlar asosida olingan natijalarning dissertatsiyaga mosligi, ishonchliligi va qo'llanilish sohalarining mavjudligi;
 - olingan natijalar asosida ishlab chiqilgan tavsiyalarni dissertatsiyaning nazariy qismiga aloqadorligi hamda maqsad va vazifalariga mosligi;
 - dissertatsiyaning ilmiy yangilik darajasi va natijalarining mahalliy hamda xalqaro amaliyotdagi ahamiyati;
 - tadqiqot natijalarini rivojlantirish istiqbollarini talabaning mohiyatan tushunib yetganligi;
- dissertatsiya yozilishida nazariy va amaliy qismlarining o'zaro mantiqiy bog'liqligi va tizimliliigi.

Rasmiy himoyada Komissiya a'zolari tomonidan talabaning ilmiy munozara olib borishi hamda auditoriya bilan ishlash madaniyati darajasi ham hisobga olinadi.

17

Ilmiy rahbar va taqrizchilarning taqrizlaridagi, shuningdek Komissiya har bir a'zosining yuqorida qayd etilgan mezonlarga ko'ra qo'ygan baholari umumlashtirilgan holda dissertatsiyaga yakuniy baho qo'yiladi.

18

Dissertatsiya rasmiy himoyaga qo'yilmagan yoki unga qoniqarsiz baho qo'yilgan taqdirda talaba uni tayyorlash va himoya qilish tartib-qoidalariga rioya qilgan holda keyingi 3 o'quv yili davomida qayta himoya qilishi mumkin. Ushbu muddat o'tgandan so'ng dissertatsiyani himoya qilishga ruxsat berilmaydi.

19

Rasmiy himoyadan o'tmagan dissertatsiya masalasi ilmiy rahbar (ilmiy maslahatchi) ishtirokida oliy ta'lim muassasasining ilmiy kengashi yig'ilishida muhokama etiladi. Bunda oliy ta'lim muassasasining ilmiy kengashi dissertatsiyani himoyadan o'tmaganligiga ilmiy rahbarning uzrsiz sabablarga ko'ra qilgan kamchiligi yoki mas'uliyatsizligi oqibatida yo'l qo'yilgan, deb qaror qilgan taqdirda, ushbu ilmiy rahbar dissertatsiyalarga ilmiy rahbarlik qilish huquqidan keyingi 3 yilgacha bo'lgan muddatga mahrum etilishi mumkin.

20

Rasmiy himoyadan o'tgan dissertatsiyalar oliy ta'lim muassasasida kamida 10 yil saqlanishi lozim.



ILOVALAR

1-ilova

XALQARO NORDIK UNIVERISTETI

“IQTISODIYOT VA BIZNESNI BOSHQARISH”

KAFEDRASI

Qo'lyozma huquqida

UDK: 65 9 (2)301

ABDURAXMANOVA AQIDA FAYZULLA QIZI

**HUDUDLARDA EKOLOGIK TURIZM SALOHİYATIDAN
SAMARALI FOYDALANISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH**
(Samarqand viloyati misolida)

70310102 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)
mutaxassisligi bo'yicha

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar:

I.f.n., dots. R.A. Akbarov

TOSHKENT – 20__

2-ilova

Magistrlik dissertatsiyasi titul varag'ining orqa tomoni quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

Magistrlik dissertatsiya ishi

“_____” kafedrasida dastlabki
himoyadan o'tgan.

_____ - sonli bayonnoma “_____” _____ 20__

Kafedra mudiri: F.I.Sh.

_____ imzo

_____ sana

Ilmiy rahbar: F.I.Sh.

_____ imzo

_____ sana

Talaba: F.I.Sh.

_____ imzo


_____ sana

Dissertatsiya Magistratura bo'limida 20__ yil “_____” _____

№ _____ raqami bilan ro'yxatga olingan.

3-ilova

1-namuna



1-rasm. SEM+SEM-Path+LCA modeling tasviriyo ko'rinishi¹

2-namuna



2-rasm. O'zbekiston Respublikasida hunarmandlar sonining 2000-2020 yillardagi dinamikasi².

¹ Stata dasturi asosida muallif ishlanmasi

² Respublika «Hunarmand» uyushmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

4-ilova

1-jadval

2012-2018 yillarda investitsiyalar tarkibining o'zgarishi, foizda

Moliyalashtirish manbalari	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.
Davlat byudjeti	12,7	10,7	9,0	9,0	8,1	7,4	5,1
Chet el investitsiyalari	19,2	19,0	22,8	25,8	32,4	28,8	25,3
Korxonalar va aholi mablag'lari	60,3	60,0	59,0	53,9	46,9	47,3	49,0
Boshqa manbalar	7,8	10,3	9,2	11,3	12,6	16,5	20,6

Manba: Muallif tomonidan DSQ (2018), Abdullayev (2018), Ekspert (2018) ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

«Manba» keltirilganda jadval ostida 10-shrift, kursivda hamda satri ("interval") "pered" qismidan "6 pt" kattalikda keltiriladi. Har bir jadval nomlanishi kerak. Jadvalning nomi uning ustki qismining o'rtasiga («po syentru»), qoraytirilgan («polujirnyy») holda yoziladi. Jadval va Jadval nomi oxirida nuqta qo'yilmaydi.

¹ Stata dasturi asosida muallif ishlanmasi

² Respublika «Hunarmand» uyushmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

5-ilova**Foydalanilgan adabiyotlarning yozilish namunalari****O'zbekiston Respublikasi qonun va qonun osti hujjatlari:**

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida (yangi tahriri). 1998-yil 1-may // <http://www.lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-iyuldagi «O'zbekiston Respublikasida loyiha boshqaruvi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5120-son farmoni.

Kitob va turkum nashrlari**1.1. Bir tomlik kitoblar, monografiyalar, darsliklar, maqolalar to'plami:**

- 1) bir muallifning: Marchuk G.I. Hisoblash matematikasining usullari. — Novosibirsk: Nauka, 2019. — 196 b.
- 2) butun manbaga havola: Годунов С.К., Рябенкий В.С. Разностные схемы (введение в теорию). Учеб. пособие для ВУЗов. - М.: Наука, 2002. Стр- 399.
- 3) ikki muallifning: Годунов С.К., Рябенкий В.С. Введение в теорию разностных схем. -М.: Физматгиз, 2002. Стр - 168.
- 4) uch muallifning: Koshlyakov N.S., Gliner E.B., Smirnov M,M. Matematik fizikaning differensial tenglamalari. - М.: Fizmatgiz, 2006. - 67 b.
- 5) to'rt muallifning: Естественные составляющие метеорологических полей / Мешерская А.В., Руховес Л.В., Юдин М.И., Яковлева Н.И. - Л.: Гидрометеиздат, 2008. Стр. - 199.
- 6) mualliflar jamoasi uchun: Планирование, организация и управление транспортным строительством /А.М.Коротеев, Т.А.Беляев ва б.; А.М.Коротеев тахрири остида. -М.: Транспорт, 2001. Стр. -286.

1.2. Ko'p tomlik kitoblar:

- a) butun manbaga havola: Флетчер К. Вычислительные методы в динамике жидкостей. В 2-хт. -М.: Мир, 2008. Стр. -504.
- b) alohida tomning tavsifi: Sedov L.I. Mexanika sploshnoy sredi. V2-xt.-М.:Nauka, 2003. T.1.B. Стр. -114-125.

Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferati:

- 1.1. Abdullayeva Q.M. Maxsus fanlarni o'qitishda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari: Dissertatsiya. Pedagogika fanlari doktori (DcS)- Toshkent: TDPU, 2018. - 182 b.
- 1.2. Sarsenbayeva R.M. Mehnat ta'limi negizida o'quv-tarbiyaviy tadbirlar o'tkazishning ilmiy-metodik asoslari: Aftoreferat. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori. — T.: O'MKXT, 2020. - 20 b.

Jurnallardagi maqolalarga havolalar:

1. Бахвалов Н.С. К оптимизации методов решения краевых задач при наличии пограничного слоя // Ж. вычисл. матем. и матем. физ. - 2005. - №4(9). - Б. 841-859.


Ilmiy ishlar to'plamlariga havolalar

1. EHM bilan intellektual muloqot: ToshDU Ilmiy ishlar To'p. - Toshkent, 2006. - 270 b.

Simpozium va konferensiya ishlariga havolalar:

5.1. Петров С.М. Влияние конечной скорости распространения поперечной волны на динамическое поведение высокого сооружения // ИВ Российская конф. по сейсмостойкому строительству: Тез. докл. - М., 2001. 55 б.

5.2. Иванов П.К. Алгоритм исследования колебаний осесимметричных сооружений с динамическими гасителями//Перспективные информационные технологии: Тез. докл. респ. науч. конф. 21-22-мая 20.



3

MUQADDIMA

5

UMUMIY QOIDALAR

14

MAGISTRLIK
DISSERTATSIYASI
SARLAVHASI

15

ANNOTATSIYA (ABSTRACT)GA
QO'YILADIGAN TALABLAR

16

KALIT SO'ZLAR
(KEYWORDS)

17

KELTIRILGAN
QISQARTMALAR
(ABREVIATURA)

18

I BOB. KIRISH

21

II-BOB. ADABIYOTLAR
SHARHI

23

III-BOB.
METODOLOGIYA

24

IV BOB. TAHLIL, NATIJALAR
VA MUNOZARALAR

27

V-BOB. XULOSA

28

FOYDALANILGAN
ADABIYOTLAR
RO'YXATI

31

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI HIMOYASINI AMALGA
OSHIRISHGA QO'YILADIGAN TALABLAR

36

Ilovalar

